



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 40 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
Bahromova Muhayyo Imomqul qizi	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
Azimov I. T., Daminova F. A.	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
Abdunazarov Bobir Normurodovich	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
Jumayeva Ra'no To'ychi qizi	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri.....	36
Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna	

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY- METODIK ASOSLARI

Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

ORCID: 0009-0008-1937-5957

Annotatsiya: Geografiya darslarida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari hamda imkoniyatlari tahlil qilingan. ChatGPT va Wordize kabi vositalardan samarali foydalanish yo'llari, shuningdek, ularning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Sun'iy intellekt asosida tashkil etilgan darslar o'qitish samaradorligini oshirib, mashg'ulotlarni kreativ va interaktiv shaklda tashkil etishga xizmat qilishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning qiziqishi, mustaqil fikrlashi va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarining rivojlanishini ko'rsatadi. Yakunda amaliy metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ChatGPT, Wordize, geografiya, tanqidiy fikrlash, obyekt, subyekt, 4K kompetensiyalari, inklyuziv ta'lim.

Abstract: The theoretical and methodological foundations as well as the possibilities of using artificial intelligence (AI) technologies in geography lessons are analyzed. Effective ways of using tools such as ChatGPT and Wordize, along with their role in improving the quality of education, are highlighted. It was found that AI-based lessons enhance teaching effectiveness and contribute to organizing classes in a more creative and interactive manner. The research results demonstrate the development of students' interest, independent learning abilities, and critical thinking skills. Practical methodological recommendations are presented at the end.

Key words: artificial intelligence, ChatGPT, Wordize, geography, critical thinking, object, subject, 4K competencies, inclusive education.

Аннотация: Проанализированы теоретико-методические основы и возможности использования технологий искусственного интеллекта (ИИ) на уроках географии. Освещены пути эффективного использования таких инструментов, как ChatGPT и Wordize, а также их роль в повышении качества образования. Установлено, что занятия, основанные на технологиях искусственного интеллекта, повышают эффективность обучения и способствуют более креативной и интерактивной организации учебного процесса. Результаты исследования демонстрируют развитие интереса учащихся, а также навыков самостоятельного и критического мышления. В заключительной части представлены практические методические рекомендации.

Ключевые слова: искусственный интеллект, ChatGPT, Wordize, география, критическое мышление, объект, субъект, компетенции 4К, инклюзивное образование.

KIRISH

Ta'lim jarayonidagi dolzarb muammolardan biri o'quvchilarning dars jarayonida passiv obyekt sifatida emas, balki faol subyekt sifatida ishtirokini ta'minlash hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ta'lim va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan loyihalarni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-320-son¹ qarori qabul qilingan^[1]. Mazkur qaror ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida mazkur texnologiyalarga asoslangan yechimlarni ishlab chiqishni jadallashtirish maqsadida qabul qilingan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan loyihalarni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-320-son qarori: <https://www.lex.uz/uz/docs/-7804375>



Sun'iy intellekt (SI) vositalari o'qituvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi muhim texnologik vosita sifatida tobora keng qo'llanilmoqda. Wordize hamda ChatGPT asosidagi sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta'limda o'quvchilarning 4K (kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya) kompetensiyalarini shakllantirish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy qo'llash hamda ta'lim jarayonining inklyuzivligini ta'minlashda samarali vosita hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda sun'iy intellekt texnologiyalari jadal sur'atlarda rivojlanib, turli sohalar qatori ta'lim jarayoniga ham faol kirib bormoqda. Mazkur texnologiyalar ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, sun'iy intellekt vositalarining xilma-xilligi ularni maqsadga muvofiq va o'rinli qo'llashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish o'qituvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim jarayonida, xususan, geografiya darslarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini interaktiv tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'qituvchi faoliyatini optimallashtirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Dars jarayoni odatda o'tilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni bayon qilish va uni mustahkamlash bosqichlaridan iborat bo'lib, ushbu bosqichlarning har birida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkin. Xususan, o'tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida ChatGPT yordamida interaktiv dars ishlanmalari va topshiriqlar ishlab chiqish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Platformaga mavzu matni kiritilib, interaktiv topshiriqlar yaratish so'ralganda, tizim o'quvchilarning individual xususiyatlari hamda ta'limiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, kommunikativ va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarni shakllantiradi.

Mazkur topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi, jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etishi hamda bilimlarni amaliyotga tatbiq etish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, geografiya ta'limida qo'llash mumkin bo'lgan sun'iy intellekt vositalaridan yana biri Wordize platformasi hisoblanadi. Mazkur platforma dars jarayoniga interaktivlik va kreativ yondashuvni joriy etishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Wordize yordamida o'qituvchilar geografik mavzular, jumladan iqlim mintaqalari, daryolar va davlatlar asosida turli didaktik o'yinlar, xususan filvord va krossvordlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, platforma yordamida atamalar va ularning ta'riflari asosida topshiriqlar tuzish, testlar yaratish va o'quvchilar bilim darajasiga mos murakkablikdagi vazifalarni ishlab chiqish mumkin. Bu esa ta'lim jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuvni samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslarini aniqlash maqsadida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatuv, qiyosiy tahlil hamda pedagogik umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida ChatGPT va Wordize platformalarining geografiya darslarini tashkil etishdagi imkoniyatlari o'rganildi.

Tahlil jarayonida sun'iy intellekt vositalari yordamida yaratilgan topshiriqlar, didaktik materiallar va interaktiv metodlarning o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv, kommunikativ ko'nikmalar va hamkorlik kompetensiyalariga ta'siri baholandi. Olingan ma'lumotlar tizimlashtirish, taqqoslash va ilmiy xulosalash usullari orqali qayta ishlanib, ta'lim jarayonidagi samaradorlik darajasi tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida Samarqand shahridagi 68-son umumta'lim maktabining 7-"A" va 7-"B" sinflarida 3 oy davomida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotda 7-"A" sinfi tajriba guruhi sifatida tanlanib, dars jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan, ChatGPT va Wordize platformalari asosida ishlab chiqilgan interaktiv metodlar qo'llanildi. 7-"B" sinfi esa nazorat guruhi sifatida an'anaviy o'qitish metodlari asosida ta'lim oldi.


Tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalaniilgan tajriba guruhida o'quvchilarning bilim darajasi, darsga qiziqishi hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, 3 oy yakunida tajriba guruhi hisoblangan 7-"A" sinfida umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi 18 % ga oshganligi aniqlandi. Nazorat guruhi bo'lgan 7-"B" sinfida esa ushbu ko'rsatkich 10 % ni tashkil etdi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi geografiya fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalarining samaradorligini aniqlash, o'qituvchilarning dars ishlanmalarini tayyorlash jarayonini optimallashtirish hamda darslarning interaktivligini oshirishdan iborat bo'ldi.

Kuzatishlar natijasida an'anaviy yondashuv asosida dars ishlanmasini tayyorlash uchun o'rtacha 50 daqiqa vaqt sarflanishi, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilganda esa ushbu jarayon o'rtacha 8–10 daqiqa davom etishi aniqlandi.

1-jadval: An'anaviy va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim yondashuvlarining qiyosiy natijalari

№	Ko'rsatkichlar	An'anaviy yondashuv	Sun'iy intellekt asosida	Natija
1	Dars ishlanmasini tayyorlash uchun sarflangan vaqt	O'rtacha 50 daqiqa	O'rtacha 8–10 daqiqa	O'qituvchi vaqti sezilarli darajada tejandi
2	Tajriba guruhi (7-"A") o'zlashtirish darajasi	Dastlabki holat	3 oy yakunida 18 % ga oshdi	Bilim sifati oshdi
3	Nazorat guruhi (7-"B") o'zlashtirish darajasi	Dastlabki holat	3 oy yakunida 10 % ga oshdi	O'sish dinamikasi past bo'ldi
4	Darsga qiziqish va interaktivlik	Nisbatan past	Yuqori darajada	Faollik oshdi
5	Mustaqil ishlash va tanqidiy fikrlash	Barqaror holatda	Sezilarli darajada rivojlandi	Ta'lim samaradorligi oshdi



1-diagramma: Tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Ayniqsa, bir o'qituvchining kun davomida o'rtacha 4 soat darsi mavjudligini hisobga olsak, har bir dars uchun alohida ishlanma tayyorlash katta vaqt va mehnat talab qiladi. Shu sababli sun'iy intellekt vositalari pedagogning vaqtini tejash, metodik yuklamani kamaytirish hamda dars sifatini oshirishda samarali yordamchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tajriba guruhidagi o'quvchilarda darsga qiziqish, mustaqil ishlash ko'nikmalari hamda tanqidiy fikrlash darajasi sezilarli darajada rivojlanganligi kuzatildi. Nazorat guruhida esa o'sish dinamikasi nisbatan past va barqaror bo'lib qoldi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini geografiya ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning bilim sifati va ta'lim samaradorligini oshirishda an'anaviy metodlarga nisbatan yuqori natija beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy ta'lim tizimida dars jarayonlarini sun'iy intellekt vositalari asosida boyitish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, ChatGPT va Wordize kabi raqamli vositalar o'qituvchilarga darslarni interaktiv, qiziqarli hamda o'quvchi markazli shaklda tashkil etishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning kunlik o'rtacha 4 soatlik dars yuklamasi mavjud bo'lib, turli sinflar uchun alohida interaktiv metodlarni ishlab chiqish an'anaviy yondashuvda murakkab hamda ko'p vaqt talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari esa mazkur jarayonni optimallashtirib, qisqa vaqt ichida turli pedagogik metodlar, topshiriqlar va didaktik materiallarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellekt vositalari o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida samarali vosita sifatida xizmat qilib, ularning ijodiy salohiyatini oshirish, vaqtni tejash hamda ta'lim sifatini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Chang C.H., Kidman G. The Rise of Generative Artificial Intelligence (AI) Language Models: Challenges and Opportunities for Geographical and Environmental Education // International Research in Geographical and Environmental Education. – 2023. – Vol. 32. – № 2. – P. 85–89.
- Juraxujayev D.D. Muammoga asoslangan o'qitishni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari // O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Namangan davlat universiteti Geografiya kafedrasi. – Namangan, 2023. – B. 382.
- Jumaniyozova M. Enhancing Creative Communicative Competence in Senior Secondary Students Through Problem-Based Learning // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2024. – B. 673–688.



4. Laylo R. va boshq. Sun'iy intellekt va akademik ingliz tilini o'rganish // Bilgi Çeşmesi. – 2026. – Vol. 2. – № 4. – B. 58–64.
5. R.M. Zakirovna. Sun'iy intellekt (AI) va avtomatlashtirishning zamonaviy jamiyatdagi o'rni // Scientific Aspects and Trends in the Field of Scientific Research. – 2026. – Vol. 4. – № 41. – B. 15–20.
6. Nilufar S. Sun'iy intellekt va insoniyat kelajagi // Научный Импульс. – 2024. – Vol. 3. – № 28. – B. 291–295.
7. S.S. Diloshodbekovna. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish // Образование, наука и инновационные идеи в мире. – 2025. – Vol. 82. – № 1. – B. 392–400.
8. Saydulloyeva Shoxsanam Mashrafjonovna. O'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda an'anaviy tarbiya va axloqiy qadriyatlarining o'rni // Eng yaxshi intellektual tadqiqotlar. – 2025. – Vol. 58. – № 3. – B. 49–56.
9. S.I. Chilmamatovich, Y.A. Odil o'g'li. O'zbekistonning ta'lim tizimidagi islohotlari // Shokh Library. – 2025. – Vol. 1. – № 11.
10. B.D. Baxtiyarovna. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda innovatsion yondashuvlar // Shokh Articles Library. – 2025. – Vol. 1. – № 1.
11. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent. – Lex.uz

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.